



UDK: 81.27:32:81.37

Lola USMONOVA,  
Tayanch doktorant, O'zbekiston Milliy universiteti  
E-mail: [tuliplili596@gmail.com](mailto:tuliplili596@gmail.com)

PhD M.Mo'minova taqrizi asosida

## THE EXPRESSION OF LINGUOCULTUROLOGICAL UNITS IN POLITICAL DISCOURSE

Аннотация

This article provides a linguoculturological analysis of political texts in the Uzbek language. It examines the linguoculturological units employed in political discourse, elucidating their functions, contexts, and methods of expression on a scientific basis. The research findings indicate that linguistic units utilized in Uzbek political discourse are shaped in close integration with socio-cultural norms.

**Keywords:** linguistic personality of a politician, political discourse, linguocultureme, lexical unit, phraseological unit, paremiological unit.

## ВЫРАЖЕНИЕ ЛИНГВОКУЛЬТУРОЛОГИЧЕСКИХ ЕДИНИЦ В ПОЛИТИЧЕСКОМ ДИСКУРСЕ

Аннотация

В данной статье проведён лингвокультурологический анализ политических текстов на узбекском языке. На научной основе освещены лингвокультурологические единицы, используемые в политическом дискурсе, их функции, место и способы выражения. Результаты исследования показывают, что языковые единицы, используемые в узбекском политическом дискурсе, формируются в тесной связи с социокультурными нормами.

**Ключевые слова:** языковая личность политика, политический дискурс, лингвокультурема, лексическая единица, фразеологическая единица, паремиологическая единица.

## SIYOSIY DISKURSDA LINGVOKULTUROLOGIK BIRLIKLARNING IFODALANISHI

Аннотация

Mazkur maqolada o'zbek tilidagi siyosiy matnlar lingvokulturologik jihatdan tahlil qilindi. Siyosiy diskursda qo'llanadigan lingvokulturologik birliklar, ularning vazifasi, ifodalanish o'rni va usullari ilmiy asosda yoritildi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, o'zbek siyosiy diskursida qo'llanuvchi lisoniy birliklar ijtimoiy-madaniy me'yorlar bilan chambarchas bog'liq holda shakllanadi.

**Kalit so'zlar:** siyosatchi lisoniy shaxsi, siyosiy diskurs, lingvokulturema, leksik birlik, frazeologik birlik, paremiologik birlik.

**Kirish.** Muloqot odamlar o'rtasidagi aloqalarni shakllantirish va rivojlantirishning murakkab hamda ko'p qirrali jarayonidir. Bunday muloqot jarayoni hamkorlikdagi faoliyat bo'lib, u ma'lumot almashinish, o'zaro munosabatlar strategiyasini ishlab chiqish, boshqa shaxsni idrok etish va tushunish zaruriyatidan kelib chiqadi. Jamiyat boshqaruvining muhim qismi bo'lgan hukumat va xalq o'rtasidagi muloqot jarayonida esa, ko'zlangan maqsadga erishish uchun o'zaro munosabatlar, bir-birini tushunish yetakchi omil hisoblanadi. Bu o'rinda, ayniqsa, siyosatchi lisoniy shaxsi, uning nutqi, qaysi birliklardan nima maqsadda foydalanishi muhim ahamiyat kasb etadi. Shu nuqtai nazardan, siyosiy nutq til va madaniyatning o'zaro ta'siri yaqqol namoyon bo'ladigan muhim diskurs turi hisoblanadi.

Siyosiy diskurs - bu nafaqat hokimiyat uchun kurash vositasi, balki muayyan jamiyatning madaniy-ma'rifiy darajasi, qadriyatlar va milliy o'zligini aks ettiruvchi lisoniy maydon hisoblanadi. O'zbek siyosiy nutqini lingvokulturologik jihatdan tadqiq etish esa, unda qo'llanilgan birliklarning semantik qatlamlarini ochishni taqozo etadi. Siyosiy nutqdagi lingvokulturologik birliklarni tadqiq etish bir millatning siyosiy madaniyatini, global sahnadagi siyosiy mavqecini o'rganishga imkon yaratadi. Zero, lingvokulturologiya til va madaniyatning o'zaro ta'sirini, til birliklarida madaniy konseptlar, stereotiplar, qadriyatlar, ramzlar qanday aks etishini tekshirishi bizga ma'lum. Siyosiy nutq esa, ana shu birliklarni maqsadli ravishda yo'naltiruvchi institutsional soha sifatida namoyon bo'ladi.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** Lingvokulturologiya sohasida ilmiy faoliyat olib borgan V.A.Maslova nutqning madaniy jihatlari haqida gapirib, lingvokulturologik birliklar muayyan millatning madaniy tajribasi, qadriyatlar va dunyoqarashini ifodalovchi til birliklari sifatida tavsiflanishini ta'kidlaydi. Shuningdek, siyosiy nutqning madaniyatdagi o'rni borasidagi fikrlarini ham bayon qiladi. Unga ko'ra, siyosiy nutq zamonaviy jamiyatda ijtimoiy ongni shakllantirish, siyosiy qarashlarni yo'naltirish va ommani muayyan g'oya atrofida birlashtirishning muhim vositasi hisoblanadi. Ushbu nutq turida qo'llaniladigan til birliklari nafaqat axborot uzatadi, balki milliy-madaniy qadriyatlar, tarixiy xotira va ijtimoiy stereotiplarni ham aks ettiradi[1]. Shu bois siyosiy nutq lingvokulturologik jihatdan tahlil qilish uchun dolzarb mavzu hisoblanadi.

Nutq birliklarini antroposentrik jihatdan tadqiq qilgan maqolasida S.G.Vorkachyov lingvokulturologik yondashuv tilni madaniyat bilan uzviy bog'liq holda o'rganishini nazarda tutadi. Bu yondashuvga ko'ra, til birliklari orqali milliy dunyoqarash va qadriyatlar tizimi ifodalanadi[2]. Ushbu fikr V.I.Karasik tomonidan ham qo'llab-quvvatlanadi va aynan siyosiy nutqning auditoriyaga ta'siri masalasi qo'shimcha qilinadi. Xususan, siyosiy nutqda til birliklari maxsus pragmatik yuklama kasb etib, auditoriyaga ta'sir ko'rsatish vositasiga aylanishi ta'kidlanadi[3]. Bizningcha, lingvokulturologik birliklar til tizimida mujassam bo'lgan va muayyan xalqning madaniy tajribasini ifodalovchi semantik

birlik hisoblanadi. Bunday birliklar tilning turli sathlarida namoyon bo'lib, siyosiy nutqda alohida kommunikativ vazifani bajaradi.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Mazkur tadqiqotda siyosiy diskursda qo'llanadigan leksik-madaniy birliklar lingvokulturologik yondashuv asosida tahlil qilindi. Tadqiqot jarayonida tavsifiy, qiyosiy hamda pragmatik tahlil metodlaridan foydalanildi. Shuningdek, siyosiy nutqda uchraydigan murojaat birliklari kommunikativ vaziyat doirasida o'rganildi.

Tadqiqot materiali sifatida siyosiy nutq materiallari, xususan, Prezident Shavkat Mirziyoyevning siyosiy nutqlari tanlab olindi. Nutqiy birliklar lingvokulturologik aspektida tahlil qilinib, ularning milliy-madaniy xususiyatlari yoritildi.

**Tahlil va natijalar.** Lingvokulturologik birlik (lingvokulturrema) deganda, tarkibida madaniy komponent mavjud bo'lgan til birliklari tushuniladi[4]. Siyosiy nutqda bu birliklar auditoriyaga ruhiy-ma'naviy ta'sir o'tkazish, manipulyatsiya qilish yoki milliy birdamlikni shakllantirish funksiyalarini bajaradi. Prezident Shavkat Mirziyoyev nutqini lingvokulturologik tahlil qilish jarayonida nutqda "Xalqchilik" strategiyasi yaqqol ko'zga tashlanishini kuzatdik. Bu strategiyani amalga oshirish uchun lisoniy birliklar tanlashda siyosatchi akademik nutqdan ko'ra ko'proq "milliy-mental nutq" modeliga yaqinlashgani ko'rinadi.

Siyosiy nutqdagi lingvokulturologik birliklarni quyidagi turlarga ajratishimiz mumkin:

#### Leksik birliklar

Leksik birliklar siyosiy nutqda asosiy semantik yukni tashuvchi vositalardir. Ular orasida ijtimoiy-siyosiy mazmunga ega bo'lgan so'zlar ko'pincha umumlashgan va ideologik yuklama bilan boyitilgan bo'ladi. Prezident Sh.Mirziyoyev 2022-yil 18-mart kuni Toshkent shahrida o'tkazilgan "Navro'z" umumxalq bayrami tantanalari va undan oldingi mahalla faollari bilan uchrashuvda so'zlagan nutqida quyidagi jumlalar keltiriladi: "Mahalla – bizning yorug' yuzimiz va vijdonimiz ko'zgidir. Agar mahalla obod bo'lsa, butun mamlakat obod bo'ladi. Mahallada adolat bo'lsa, davlatda adolat bo'ladi".

Bu yerda qo'llangan "mahalla" konsepti bevosita "vijdon ko'zgusi"ga o'xshatilishi o'zbek xalqining ma'naviy dunyosida muhim o'rin tutadigan "sharm-hayo" va "jamoat oldidagi mas'uliyat" tushunchalarini faollashtiradi. Mahallani "vijdon ko'zgusi" deb atash bilan siyosatchi davlat boshqaruv tizimini axloqiy mezonlar bilan bog'laydi hamda "mahalla" konseptining madaniy va siyosiy qimmatini oshiradi. Demak, davlat boshqaruvida jamoaviy madaniyatning ham alohida mavqei borligiga ishora qiladi.

#### Frazeologik birliklar

Frazeologizmlar milliy madaniyatning muhim ko'rinishi bo'lib, siyosiy nutqda obrazlilikni kuchaytiradi. Ular xalq tafakkuri, tarixiy tajribasi va madaniy stereotiplarning ifodachisi sifatida xizmat qiladi hamda nutqning ta'sirchanligini oshirishni o'zida aks ettiradi[5]. O'zbek siyosatchilari nutqida iboralar eng faol qo'llanadigan lingvokulturologik birliklar sirasiga kiradi. Ular nutqning argumentativ quvvatini oshiradi. Prezident Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga murojaatnomalarida: "Og'ziga kuchi yetmagan rahbar - rahbar emas" xalqona iborasining qo'llanishi kuzatiladi. Bu yerda qo'llangan "Og'ziga kuchi yetmagan" iborasi siyosiy rahbarning har qanday vaziyatda vazminlik bilan ish yuritishi kerakligiga ishora qiladi.

#### 3. Paremiologik birliklar

Maqol va matallarning siyosiy nutqda qo'llanish darajasi oz bo'lsa-da, ular qisqa va lo'nda shaklda chuqur ma'no ifodalovchi lingvokulturologik birliklar sifatida muhim ahamiyat kasb etadi. Paremiologik birliklar qo'llangan matn

auditoriyaga tez ta'sir ko'rsatadi va nutqni milliy ruh bilan boyitadi[6]. Prezident Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga murojaatnomalarida: "Bir kun janjal bo'lgan uydan qirq kun baraka qochadi" maqolining qo'llanishi kuzatiladi. Bu misoldagi "baraka" tushunchasi o'zbek lingvokulturasida markaziy konseptlardan biri bo'lib, u iqtisodiy farovonlikdan ko'ra ko'proq ma'naviy uyg'unlikni ifodalaydi. Siyosatchi lisoniy shaxsi ushbu paremiyani qo'llash orqali xalqaro munosabatlardagi tinchlik va barqarorlikni xalqning ichki madaniy kodi (paradigmati) orqali tushuntiradi.

Siyosiy diskursda qo'llanadigan "Qars ikki qo'ldan chiqadi" maqoli ko'pincha davlat organlari va xalq o'rtasidagi hamkorlikni ifodalashda ishlatiladi. Lingvokulturologik nuqtai nazardan, bu birlik o'zbek xalqiga xos bo'lgan "hashar" va "jamoaviylik" qadriyatlarini faollashtiradi. "Daraxt poyidan, inson oilasidan ko'karadi" paremiyasi orqali esa, siyosatchilar davlatning eng kichik bo'g'ini bo'lgan oilani lingvistik jihatdan ulug'laydi.

#### 4. Metaforik birliklar

Metaforalar siyosiy diskursda keng qo'llaniladi. Ular tushunchalarni obrazlar orqali ifodalash imkonini beradi. Siyosiy metafora ideologik ta'sir vositasi sifatida xizmat qiladi hamda siyosiy g'oyalarni tushunarli va esda qolarli shaklda yetkazib beradi[7]. Siyosiy nutqda dunyoni lisoniy modellashtirish asosan metaforalar yordamida amalga oshiriladi. O'zbek siyosiy maydonida "Oila", "Ona – Vatan", "Mahalla" kabi konseptlar metaforik asos vazifasini o'taydi. Demak, siyosiy diskurda Oila – Davlatni, oila boshlig'i (ota) – rahbar(president)ni ifodalaydi: "Biz barchamiz bir tan-u bir jon, bir oila bo'lib harakat qilishimiz kerak" [Mirziyoyev, 2022]. Keltirilgan misolda ham davlatning bir oila ekanligi, mamlakat taraqqiyoti uchun butun oila a'zolari(fuqarolar) birgalikda harakat qilishi lozimligiga ishora qilingan. Bu esa o'zbek lingvokulturasining hamjihatlik tabiatidan dalolat beradi.

#### 5. Pretsedent birliklar

Pretsedent birliklar (taniqli shaxslar ismlari, tarixiy voqealar, badiiy asarlar) milliy xotirani jonlantirish orqali siyosiy g'oyani asoslaydi. O'zbek siyosiy nutqida Amir Temur, Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur kabi shaxslarning nomlari va ularning asarlaridan keltirilgan iqtiboslar "ma'naviy tayanch" vazifasini o'taydi. Keyingi yillarda siyosiy maydonda jadidlar davri va ularning lisoniy merosiga ko'proq murojaat qilinmoqda va bu pretsedent birlik sifatida lingvokulturologik o'rganishning ahamiyatini oshiradi. Bunday yondashuv jadidlar merosini bugungi va kelajak avlodga ko'proq yetkazishda va milliy o'zlikni chuqurroq anglashda ijobiy samara beradi. Prezident Sh.Mirziyoyevning 2021-yil 31-avgustda "Shahidlar xotirasi" xiyobonidagi qatag'on qurbonlarini yod etish marosimi munosabati bilan so'zlagan nutqida shunday keltiriladi: "Jadid bobolarimizning ma'rifat yo'lidagi kurashi - biz uchun ozodlik va kelajak poydevoridir. Ularning "Til - millatning ruhidir" degan tamoyili bugun ham biz uchun dasturilamal bo'lib qoladi".

Ushbu nutqda qo'llangan "jadidlar" hamda "bobolarimiz" konseptlari o'zbek siyosiy diskursida tarixiy xotira asosida ma'naviy vorislik hissini uyg'otishga xizmat qiladi. Bu birliklar tinglovchida milliy o'zlikni anglash va vatanparvarlik tuyg'usini konseptualashtiradi.

**Xulosa va takliflar.** Umuman olganda, siyosiy nutqda lingvokulturologik birliklarning ahamiyati katta bo'lib, ular siyosiy nutqning ta'sirchanligini oshiruvchi asosiy omillardan biri hisoblanadi. Ular orqali siyosatchi lisoniy shaxsi auditoriya bilan umumiy madaniy kod asosida muloqot olib boradi. Bunday birliklar milliy o'zlikni anglash jarayonida muhim rol o'ynab, jamiyat a'zolarini yagona qadriyatlar tizimi asosida birlashtiradi. O'rganishlar shuni ko'rsatadiki, siyosiy diskursda milliy mentalitetning qatlamlari - jamoaviylik, an'anaviylik,

diniy-axloqiy ustuvorlik kabi xususiyatlar lingvokulturologik birliklar orqali namoyon bo'ladi. Demak, siyosiy nutqda lingvokulturologik birliklar til va madaniyat o'rtasidagi uzviy

aloqani ta'minlovchi muhim vosita hisoblanadi. Ular orqali nafaqat axborot uzatiladi, balki milliy qadriyatlar va ideologik qarashlar ham shakllantiriladi.

#### ADABIYOTLAR

1. Маслова В.А. Лингвокультурология. – Москва, 2001.
2. Воркачев С. Г. Лингвокультурология, языковая личность, концепт: становление антропоцентрической парадигмы в языкознании // Филологические науки, 2001. – № 1. – С. 64-72.
3. Карасик В. И. Язык социального статуса — М.: Гнозис, 2002.
4. Safarov Sh. Pragmalingvistika. – Toshkent: “O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi”, 2008.
5. Телиа В.Н. Русская фразеология. – Москва, 1996.
6. Пермяков Г. Л. Фундаменталс оф Структурал Паремииологй. – Моссow: Наука, 1988. П.326
7. Lakoff G., Johnson M. Metaphors We Live By. – The University of Chicago Press, Chicago, 2003.
8. Usmanova Sh. Lingvokulturologiya. – Toshkent, 2019.
9. Asqarova M. O'zbek tilida siyosiy metaforalar. T.: O'zbekiston Milliy Universiteti nashriyoti, 2018.
10. Dadaboyev Sh. O'zbek siyosiy nutqining lingvistik xususiyatlari. T.: Fan nashriyoti, 2020.